

## 2- SHO'BA. IJTIMOY-IQTISODIY, SIYOSIY-FUQAROLIK YO'NALISHI;

### FALSAFA FANINI O'QITISHDA KREDIT-MODUL TIZIMI VA USULLAR.

**Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich**

*Andijon davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi,  
Andijon shahar Do'stlik ko'chasi 4-uy, telefon: +998 99 903 48 49, E-mail:  
anddupimanaviyat@mail.ru*

#### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Boloniya jarayoni va deklaratsiyasi haqida va kredit-modul tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida asosli ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada falsafa fanini oliy ta'lim muassasa talabalariga samarali o'qitishning bir qator usullari taklif etilgan.*

#### **Kalit so'z**

*Boloniya jarayoni va deklaratsiyasi, kredit-modul tizimi, "Assotsatsiya" metodi va "Sinkveyn".*

#### **Аннотация**

*В данной статье представлены обоснованные сведения о Болонском процессе и декларативу, а также о возникновении и развитии кредитно-модульной системы. Кроме того, в статье предлагается ряд методов эффективного преподавания философии студентам высших учебных заведений.*

#### **Ключевые слова**

*Болонский процесс и декларативу, кредитно-модульная система, метод "Ассоциативу" и "Синквейн".*

#### **Abstract**

*This article provides substantiated information about the Bologna Process and Declaration, as well as the emergence and development of the credit-module system. Additionally, the article proposes several methods for effectively teaching philosophy to university students.*

#### **Keywords**

*Bologna Process and Declaration, credit-module system, "Association" method, and "Cinquain."*

Respublikamizda oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimini joriy etish bilan bog'liq islohotlar "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi" ni qabul qilish bilan boshlandi. Ushbu Harkatlar strtegiyasida oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish

maqsadida “milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish” belgilab qo‘yilgan. Harakatlar Strategiyasida Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi qo‘yilganligi kredit-modul islohotlari oliy ta’lim uchun qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda Boloniya jarayoni ko‘plab davlatlarda oliy ta’limda milliy darajadagi islohotlar zanjiriga turtki bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Boloniya jarayonining tasiri Yevropa mamlakatlari yoki Boloniya deklaratsiyasini imzolagan mamlakatlar bilan chegaralanmaydi balki, Boloniya jarayoni akvetoriyasidan tashqarida bo‘lgan bir qancha mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Xususan, Lotin Amerikasida Lotin Amerikasi va Karib havzasi oliy ta’lim hududini yaratish dasturini boshlandi. G‘arbiy Afrikaning 15 mamlakati talabalarning mintaqalararo harakatchanligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kelishuv imzoladi. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida esa kredit transferini ishlab chiqish orqali Janubi-Sharqiy Osiyo oliy ta’lim makonini yaratish orqali oliy ta’lim tizimi, sifat kafolati asosi, diplom ilovasi va tadqiqot klasterlarini standartlashtirilmoqda. MDH mamlakatlaridagi uyg‘unlashtirish choralari o‘z universitetlarini xalqaro standartlarga, ta’lim tizimini esa G‘arb standartlariga moslashtirishga harakat qilmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida amalga oshirilayotgan bunday ko‘plab tashabbuslar nafaqat Yevropa, balki butun dunyo miqyosida oliy ta’limni isloh qilishda Boloniya jarayonining ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kredit-modul tizimiga o‘tishdan maqsad – mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish hamda O‘zbekistonning jahon ta’lim makoniga integratsiyasini kengaytirish. Shuningdek, xalqaro reytinglarda qatnashish imkoniyatlari kengayadi.

Talabalar uchun boshqa mamlakatlardagi oliygohlar bilan kredit mobillik asosida akademik almashinuv, qo‘shma diplom dasturlari va o‘qishni ko‘chirish jarayonlarida ishtirok etish hamda o‘qituvchilar almashinuvini kengroq yo‘lga qo‘yish mumkin. Xususan, “Yevropa ta’lim uslubi talabalarning nafaqat ta’lim ob‘yektini sifatida, balki ta’lim tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi insonlar sifatida ham o‘qish jarayonidagi yuqori faolligini ko‘zda tutadi. Bu, bir tomondan, talabaning yuqori darajada o‘z-o‘zini anglashini talab etadi, ikkinchi tomondan esa talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirish zarurligini taqozo etadi”. Kredit-modulning aynan ECTS turiga o‘tilishiga sabab esa, bu dunyo bo‘yicha eng maqbul variant va shuningdek, O‘zbekistonga qo‘shni davlatlar ham shu tizimdan foydalanadi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimiga o‘tishi bu muayyan miqdordagi kreditlarni yil, semestr va fanlar bo‘yicha taqsimlab qo‘yishning o‘zidan iborat emas. Agar kredit-modul tizimi to‘g‘ri va to‘liq joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida juda katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berishini kutsak bo‘ladi. Xususan, mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga ta’limning jahon tan olgan mukammal o‘lchov birligining olib kirilishiga, oliy ta’lim muassasalar o‘quv dasturlarida muvozanat va me’yor paydo bo‘lishiga, oliy ta’lim muassasalarda o‘qish jarayonining shaffoflashishiga, o‘quv dasturlari

iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga va nihoyat har bir talaba ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, dunyo tan olgan amaliyot – talaba mehnat bozori talabidan kelib chiqib, kelgusida qaysi sohada ishlashiga qarab, o'zi fan tanlash huquqiga, o'qitilayotgan fan bo'yicha ham o'qituvchini o'zi tanlash huquqiga ega bo'ladi va oliy ta'lim muassasasi bunga sharoit yaratib berishi shart bo'ladi. Kredit-modul tizimiga o'tilishi tom manoda shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ya'ni, kredit-modul tizimiga o'tganda, barcha jarayonlar elektron holatga keltiriladi. Qog'oz ko'rinishidagi reyting daftarchasi va talabalarning qayd varaqasi, jurnallar, o'qituvchilar ish rejasi – hammasi bekor qilinadi. Elektron tizimda belgilangan muddat o'tgach, bahoni o'zgartirishga o'qituvchida imkoniyat qolmaydi. Baho qandaydir sabab bilan o'zgartirilsa ham, uni kim, qachon va qanday o'zgartirgani tegishli dasturda ko'rinib turadi. Bu bilan eng avvalo, korrupsiyaviy holatlar bartaraf etiladi.

Ushbu tizim orqali Oliy ta'lim muassalarida har bir fanni o'qitishning mazmun-mohiyati o'zgardi. Fanlarni o'qitish borasida kredit-modul tizimiga muvofiq ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining amalga oshirilish doirasi o'zgardi. Shuningdek, fan bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonlari alohida ahamiyat kasb etdi. Xususan, falsafa fanini oliy ta'lim muassasa muassalarida bakalavriat bosqichida o'qitishning kredit-modulga moslashtirilgan holda o'qitishning dolzarbligi oshmoqda. Ana shu kabilarni hisobga olgan holda falsafa fanini o'qitishda quyidagi metod, usul va vositalarni taklif etamiz.

Falsafani o'qitishda fanlar integratsiyasini amalga oshirish mumkin. To'g'ri, boshqa bir qator fanlarga falsafa fanining tushunchalari kirib kelgan. Jumladan, shakl va mazmun tushunchasi adabiyot faniga kirib kelgan. “Assotsiatsiya” metodi dan falsafa fanini o'qitishda foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda Assotsiatsiya so'zi bir-biriga mohiyatan yaqin tushunchalarni anglatadi. Masalan, qish so'zi qor, sovuq, oq, chana, archa kabi tushunchalarni o'z atrofiga yig'adi. Bu assotsiativlik hisoblanadi. Bu jarayonni falsafa fani bilan bog'lashni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Bunda talabalar guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh uchun Assotsiatsiya hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan tushunchalar taqdim etiladi. Masalan, bilish.

Talabalar tomonidan taxminiy quyidagicha javoblar berilishi lozim:

- shaxsiy bilim;
- falsafiy bilim;
- mifologik bilim;
- diniy bilim;
- xotira;
- tasavvur qilish;
- empirik bilim;
- haqiqat.

Yoki qadriyat, bu tushunchaga esa quyidagicha javob taqdim etiladi:

- aksiologiya;
- qadriyat;
- qadrlash;

- urf-odat;
- an'ana;
- marosim.

Ushbu berilgan Assotsiatsiyalar talabalar tomonidan izohlanishi zarur. To'g'ri va to'liq izohlanmagan tushunchalar qabul qilinmaydi. Ushbu metodning ta'limiy maqsadi sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin. Bular: o'tilgan mavzular takrorlanadi, talabalar ongida tushunchalarni guruhlash jarayoni amalga oshiriladi, fikrni bayon etish rivojlanadi, guruh bilan ishlash amalga oshiriladi, faol tinglovchilarni yaratish mumkin (bunda raqib jamoaning javobi to'g'ri yoki noto'g'riligi bilish uchun tinglashlari zarur), nutq rivojlanadi.

Falsafa fanini tushunishda “Sinkveyn” metodi ham talabalar uchun samarali hisoblanadi. Bunda sinkveyn – o'zbek tilida “5 qatorli she'r” ma'nosini beradi. Ushbu metod “Assotsiatsiya” metodi bilan o'xshashi mumkin, ammo farqli jihati ushbu metod individual amalga oshirilganda va yozma bayon etilganda foydali bo'lib, bunda har bir talaba fikrlaydi va natijani taqdim etishi kerak. Bunda talabalar uchun falsafiy atamalar beriladi. Ushbu atamani oldin bir so'z bilan, 2-qadam ikki so'z bilan, 3-qadam uchta so'z, 4-qadam to'rtta tushuncha va 5-qadam besh tushuncha bilan yozma ifoda etish nazarda tutiladi. Masalan, estetika:

1. Nafosat.
2. Go'zallik falsafasi.
3. Ichki, tashqi go'zallik.
4. Falsafa, psixologiya, kibernetika, semiotika.
5. Voqelikning go'zallik asosida in'ikos etishi.

Taklif etilayotgan metodning afzalliklari shundaki, talabalar o'rgangan mavzularini qisqa va aniq holda tushuntirib beroladi. Ushbu ma'lumotlarni qayd etguncha bo'lgan mudatda ong faol mulohaza yuritadi. Ong tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar saralanadi.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasa talabalari o'quv jarayonida har bir fandan yetarli miqdorda kredit yig'ishlari kerak bo'ladi. Jumladan, falsafa fani barcha yo'nalish talabalariga o'qitiladi. Ularning o'zlashtirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars davomida turli metodlar foydalanish yaxshi samara beradi. Shu orqali talabalar yetarli kredit to'plashlari mumkin bo'ladi.

### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>.
2. Esonov M. Oliy ta'limni kredit-modul asosida tashkil etish metodikasi. Metodik qo'llanma. T.: “Sano-Standart” nashriyoti: 2023 y. – 28 b.
3. L.Zaripov, N.Xayitov, M.Tuxtayeva. Kredit-modul tizimi bo'yicha xorij tajribasi. Metodik qo'llanma T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 y. – 32 b.
4. B.SH.Usmonov, R.A.Xabibullaev. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti: 2020 y. – 120 bet.

5. U. Muxtarov. Oliy ta'limda kredit-modul tizimi: xorijiy tajriba va amaliyot (metodik qo'llanma) // Toshkent: "ILM-ZIYO-ZAKOVAT" nashriyoti, 2022 y. 92 bet.